


## V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat koʻrsatish sohasining rolini oshirishga katta taʼsir koʻrsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar koʻrsatmaydigan yoki hech boʻlmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yoʻq.

2025-yil 1-aprel holatiga viloyatda 27 206 ta faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etildi. Shundan, xizmatlar sohasida 19 123 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat koʻrsatmoqda. Ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 9,0 foizga kamaydi.

**2025- yilning 1- aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotganlarining ulushi, %**  
(fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)



Innovatsion xizmatlarni joriy etish va anʼanaviy xizmatlarni rivojlantirish boʻyicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keldi. Natijada, 2025-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar shlab chiqarish hajmi 8 711,8 mlrd.soʻmni tashkil etdib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 foizga oʻsdi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan xizmat turlari bo'yicha (amaldagi baholarda) quyidagicha ifodalanadi\*:**


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024-yil yanvar- martga nisbatan, foizda</i>	<i>yakunga nisbatan, foizda</i>
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>8 711,8</b>	<b>108,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	289,0	117,5	3,3
Moliyaviy xizmatlar	1 126,4	104,6	12,9
Transport xizmatlari	1 581,1	113,1	18,2
shu jumladan: avtotransport xizmati	1 431,6	111,3	16,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 234,0	107,7	25,6
Savdo xizmatlari	1 958,2	111,1	22,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	129,8	112,4	1,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	355,3	97,2	4,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	148,6	106,8	1,7
Ijara xizmatlari	158,1	108,0	1,8
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	178,6	113,2	2,1
Shaxsiy xizmatlar	181,7	108,4	2,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	65,3	113,0	0,7
Boshqa xizmatlar	305,7	105,0	3,5

*\*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda*

Xizmat ko'rsatishda eng katta ulush yashash va ovqatlanish (25,6 foizi), savdo (22,5 foizi), transport (logistik xizmatlar bilan birga) (18,2 foizi), moliyaviy (12,9 foizi) va ta'lim (4,1 foizi) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasidagi xizmatlar (o'tgan yilga nisbatan 17,5 foizga ko'p) va kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning (13,0 foizga ko'p) o'sish yuqori bo'ldi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida\*  
shahar va tumanlar kesimida ulushi, foizda**



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida katta ulushga ega bo'lgan Buxoro shahri (26,1 foizni), G'ijduvon tumani (8,4 foizni), Vobkent tumani (6,9 foizni), Jondor (3,9 foizni) tashkil etgan bo'lsa, Peshku (3,8 foizni) va Romitan tumanlari (3,7 foizni) eng past ulush ko'rsatkichni qayd etdi.

*\*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda*


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar**  
(tuman va shaharlar kesimida)

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024-yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i>	<i>jami xizmatlar hajmiga nisbatan, foizda</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2024-yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i>
<b>Viloyat bo'yicha*</b>	<b>8 711,8</b>	<b>108,9</b>	<b>100,0</b>	<b>4 188,5</b>	<b>107,2</b>
Buxoro sh.	2 277,8	106,9	26,1	7 572,4	104,9
Kogon sh.	225,1	115,5	2,6	3 431,4	114,1
<i>tumanlar</i>					
Olot	196,9	109,9	2,2	1 859,2	108,5
Buxoro	308,2	109,2	3,5	1 692,6	107,2
Vobkent	599,0	116,2	6,9	3 954,0	114,2
G'ijduvon	730,1	109,4	8,4	2 227,4	107,8
Kogon	209,2	110,8	2,4	2 417,9	108,6
Qorako'l	258,1	109,1	3,0	1 479,3	107,6
Qorovulbozor	111,5	110,4	1,3	5 463,2	107,7
Peshku	328,9	106,5	3,8	2 462,0	104,7
Romitan	321,2	109,2	3,7	2 091,1	107,7
Jondor	338,5	109,4	3,9	1 790,1	107,5
Shofirkon	266,0	108,8	3,0	1 410,9	107,7

*\*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda*

Hududlar orasida yuqori o'sish sur'atlari Vobkent tumanida (116,2 foiz) hamda Kogon shahrida (115,5 foiz), Kogon (110,8 foiz) va Qorovulbozor (110,4 foiz) tumanlarida kuzatildi.

**Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'ati dinamikasi**




*\*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda*

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida 7 572,4 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9 foizni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Shofirkon (1 410,9 ming so'm), Qorako'l (1 479,3 ming so'm) va Buxoro (1 692,6 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida  
bo'yicha aholi jon boshiga hajmlar, ming so'm**



2025-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 188,5 ming so'mni tashkil qildi va o'sish sur'ati o'tgan yilga 107,2 foizni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati dinamikasi**




*\*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda*

Hozirgi kunda viloyatda oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi xizmatlar turida yetakchi o'rinni egallaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

2025-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2 234,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi, hamda o'tgan yilga nisbatan o'sish 107,7 foizni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 25,6 foizga teng. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlar (96,8 foiz) ustunlik qildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati, foizda  
(2025-yil yanvar-mart)**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (114,8 foiz) shahrida kuzatildi. O'tgan yilga nisbatan bu xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Romitan (106,6 foiz) tumanida qayd etildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 958,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 22,5 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining o'sish sur'ati 111,1 foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Vobkent tumanida (406,2 mlrd. so'm) Buxoro shahri (338,7 mlrd. so'm), G'ijduvon (218,1 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd.so‘m  
(2025-yil yanvar-mart)**




Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Ushbu hududda savdo xizmatlari hajmi 43,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Aholi daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi ko'lami o'smoqda. Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2025-yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 56,4 foizni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 31,7 foizni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarni qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 11,9 foizni tashkil qiladi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, foiz**  
(2025-yil yanvar-mart)




**Savdo bu** – tovarlarningaylanishini, ularningishlabchiqarish sohasidan istemolsohasiga o'tishinitaminlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarni zarur istemolchiga yetkazibberishvazifasini bajaradi.

Transport xizmatlarining eng katta qismi avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.

2025-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlarining hajmi 1 581,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ularning o'sishi 113,1 foizni tashkil etganligi kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Kogon (126,7 foiz) va Buxoro (119,0 foiz) shaharlarida, Qorako'l (111,8 foiz) tumanida qayd etildi.

**Shahar va tumanlarkesimida transport xizmatlarining hajmi, mln. so‘m**  
(2025-yil yanvar-mart)



O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining eng past o'sish sur'ati Qorovulbozor (104,4 foiz) tumanida qayd etildi.


Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar birinchi navbatda ong va fikrlashdagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlab, ma'naviyatni yuksaltirishga hissa qo'shadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi,

darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2025-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 355,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 97,2 foizni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'ati\*, foiz**  
(2025-yil yanvar-mart)



Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini etarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog'liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.

*Izoh: ma'lumotlarda shahar va tumanlar kesimida yashirin iqtisodiyot hisobga olinmagan*

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatning o'ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

**“Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko'rsatkichi** –ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini o'lchovchi, iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

**Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi**, bu xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

**Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar** naqd pul, shu jumladan plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan, shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

**Elektron to'lovlar** – texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari orqali naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish.

**Elektron pullar** – O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

**Faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarni tasniflash**, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o‘rinlarda MST debataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

**Bozor xizmatlari hajmi** MST bo‘yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo‘yicha shakllantiriladi.

Amaldagi narxlarda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ishlab chiqarish, mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

**Moliyaviy xizmatlar** Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Amaldagi narxlarda moliyaviy xizmatlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida) hisobga olinadi. Chet el valyutasida kelib tushadigan foizli daromadlar hisobot davridagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli kursi bo‘yicha hisob-kitob qilinadi va so‘mda aks ettiriladi.

**Transport xizmatlari** transportning barcha turlarida yuklarni va yo‘lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan logistik xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Amaldagi narxlarda transport xizmatlarining yalpi ishlab chiqarish hajmi transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida pochta va kuryerlik faoliyatining ishlab chiqarilgan yalpi hajmi hisobga olinadi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

**Savdo xizmatlari** ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar** oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim, maktabgacha ta'lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, Internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lim olish va xohlagan kasbga o'qishni qamrab oladi. **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar** statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.